



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

GAPNING SINTAKTIK TUZILISHINI TAHLIL QILISHDA ZAMONAVIY LINGVISTIK PARADIGMALAR

Xamdamova Dilnoza

Qarshi davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqola zamonaviy lingvistikada sintaktik tuzilmani o'rganishga doir asosiy nazariy yondashuvlarni tahlil qiladi. Unda generativ, funksional, kognitiv va tipologik paradigmlar hamda ularning metodologik asoslari va tushuntirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot zamonaviy sintaktik nazariyaning multiparadigmali xususiyatini hamda formal, funksional va kognitiv yondashuvlarni integratsiyalash tendensiyasini yoritadi. Shuningdek, ushbu nazariyalarning sintaktik razmetkalash va korpus tadqiqotlari uchun ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi sodda gap tuzilmalarining qiyosiy tavsifi ham beriladi. Tahlil natijalari turli nazariy yondashuvlarni birgalikda qo'llash sintaktik tizimlar va tillararo variativlikni yanada to'liqroq tushuntirish imkonini berishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sintaksis, generativ grammatika, funksional sintaksis, kognitiv lingvistika, tipologik yondashuv, gapning sintaktik tuzilishi, multiparadigmallik, tillararo variativlik, sintaktik razmetkalash, minimalistik dastur

СОВРЕМЕННЫЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ В АНАЛИЗЕ СИНТАКСИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Хамдамова Дилноза

Каршинский государственный университет, базовый докторант

Аннотация

В статье анализируются основные теоретические подходы к изучению синтаксической структуры в современной лингвистике. Рассматриваются генеративная, функциональная, когнитивная и типологическая парадигмы, их методологические основания и объяснительные возможности. Исследование освещает мультипарадигмальный характер современной синтаксической теории и тенденцию к интеграции формальных, функциональных и когнитивных подходов. Также анализируется значение данных теорий для синтаксической разметки и корпусных исследований. В статье представлено сопоставительное описание простых предложений в узбекском и английском языках. Результаты показывают, что комплексное применение различных теоретических подходов позволяет более полно объяснить синтаксические системы и межъязыковую вариативность.

Ключевые слова: синтаксис, генеративная грамматика, функциональный синтаксис, когнитивная лингвистика, типологический подход, синтаксическая структура предложения, мультипарадигмальность, межъязыковая вариативность, синтаксическая разметка, минималистская программа.

MODERN LINGUISTIC PARADIGMS IN THE ANALYSIS OF THE SYNTACTIC STRUCTURE OF THE SENTENCE

Xamdamova Dilnoza

Karshi State University, Doctoral student

Abstract

This article examines major theoretical approaches to syntactic structure in contemporary linguistics. It focuses on four key paradigms – generative, functional, cognitive, and typological – and analyzes their methodological foundations and explanatory potential. The study highlights the multiparadigmatic nature of modern syntactic theory and the growing tendency to integrate formal, functional, and cognitive perspectives. Special attention is given to the relevance of these approaches for syntactic annotation and corpus-based research. The paper also considers the comparative description of simple sentence structures in Uzbek and English as representatives of agglutinative and analytic language types. The analysis demonstrates that combining insights from different theoretical frameworks provides a more comprehensive understanding of syntactic organization and cross-linguistic variation.

Keywords: syntax, generative grammar, functional syntax, cognitive linguistics, typological approach, syntactic structure of the sentence, multiparadigmaticity, cross-linguistic variation, syntactic annotation, Minimalist Program

Sintaksis zamonaviy lingvistika tizimida markaziy o‘rin tutadi, chunki aynan u gapning tashkil topish tamoyillari hamda uning tarkibiy qismlari o‘zaro qanday munosabatda bo‘lishini tavsiflaydi. So‘nggi o‘n yilliklarda sintaktik nazariya sezilarli darajada transformatsiyaga uchradi: yagona tushuntiruvchi modelni izlashdan turli metateoretik asoslarga ega bir nechta nazariy paradigmalar birgalikda mavjud bo‘lish bosqichiga o‘tildi. Kertész, Moravcsik va Rákosi tomonidan o‘tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, bu paradigmalarni to‘rt mezon asosida tizimli ravishda taqqoslash mumkin: tadqiqot maqsadlari, qo‘llaniladigan ma‘lumotlar, tahliliy vositalar hamda nazariyalarni baholash mezonlari[8].

Bunday multiparadigmallik zamonaviy sintaktik nazariya yagona kumulyativ bilim sifatida emas, balki turli ilmiy dasturlar kesishadigan makon sifatida rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuvlarni tizimlashtirish turli tipologik guruhlariga mansub tillarni tahlil qilishda ayniqsa muhimdir, chunki aksariyat sintaktik modellar asosan hind-yevropa tillari materiali asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur maqolaning maqsadi zamonaviy sintaktik nazariyaning asosiy yo‘nalishlari – generativ, funksional, kognitiv va tipologik yondashuvlarni – ularning metodologik asoslari hamda tushuntirish salohiyati nuqtai nazaridan tahlil qilishdan iborat.

Generativ sintaksis zamonaviy lingvistikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida N. Xomskiy ishlari ta‘sirida shakllandi. U tilni universal grammatik tamoyillarga asoslangan kognitiv tizim sifatida talqin qilishni taklif etdi. Uning konsepsiyasida sintaksis insonning chekli qoidalar majmui asosida cheksiz miqdordagi grammatik jihatdan to‘g‘ri gaplarni hosil qilish qobiliyatini tushuntiruvchi formal mexanizm sifatida qaraladi. Ushbu g‘oya zamonaviy formal lingvistikaning asosiy nazariy tamoyillaridan biriga aylandi [2].

So‘nggi o‘n yilliklarda generativ nazariyaning rivojlanishi minimalistik dasturga o‘tish bilan bog‘liq bo‘lib, unda grammatik operatsiyalar iqtisodiyligi hamda tuzilma qurilishining maksimal darajada sodda mexanizmlarini aniqlashga alohida e‘tibor qaratiladi. Pléh va Roszkowski ta‘kidlashicha, minimalistik yondashuv tilning asosiy xususiyatlari – iyerarxik tashkil topish va rekursivlikni – sintaktik tuzilmaning asosiy mexanizmi sifatida qaraladigan yagona Merge operatsiyasi orqali izohlashga intiladi [9].

Generativ yondashuvga ko‘ra, gapning sintaktik tashkil topishi iyerarxik xarakterga

ega bo'lib, u so'zlarning oddiy chiziqli ketma-ketligiga keltirib chiqarilmaydi. Bu holat strukturaviy ko'pma'nolilik misollari orqali yaqqol ko'rinadi:

(1) *Flying planes can be dangerous.*

Mazkur gap kamida ikki xil talqinni anglatadi: "samolyotni boshqarish xavfli bo'lishi mumkin" va "uchayotgan samolyotlar xavfli bo'lishi mumkin". Generativ nazariya bunday holatlarni gapning yuzaki va chuqur tuzilmalari o'rtasidagi farq orqali izohlaydi: chiziqli shakl bir xil bo'lsa ham, ikki variant turli sintaktik daraxtlarga ega bo'ladi va aynan shu farq ma'no noaniqligini yuzaga keltiradi. Bu esa grammatik tasvirlashning abstrakt darajalari mavjudligini tasdiqlovchi asosiy dalillardan biri sifatida qaraladi.

Ilmiy adabiyotlarda minimalistik dastur generativ paradigma doirasida konseptual qayta talqin sifatida baholanadi. U insonning til qobiliyatining fundamental xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. N. Xomskiy grammatikani optimal ishlashga intiluvchi tizim sifatida talqin qiladi, bunda sintaktik tuzilmalar cheklangan miqdordagi universal tamoyillar o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi [2].

Generativ sintaksisning muhim xususiyatlaridan biri uning til kompetensiyasini tavsiflashga yo'naltirilganligidir: tahlil obyekti sifatida faqat kuzatiladigan nutq amaliyoti emas, balki til egasining bilimlar tizimi qaraladi. Bu esa gap tuzilishini formal modellashirish hamda til egalarining intuitiv hukmlaridan foydalanishga asoslangan metodologiyani belgilaydi.

Zamonaviy ilmiy munozaralarda generativ sintaksis o'zaro bir-birini to'ldiruvchi bir nechta paradigmalar qatorida qaraladi. Funksional va *usage-based* yondashuvlar sintaktik hodisalarga muqobil izohlar taklif etib, kommunikativ va diskurs omillarining rolini alohida ta'kidlaydi. Pléh va Roszkowski ta'kidlaganidek, bu holat zamonaviy lingvistikaning multiparadigmalar xususiyatini aks ettiradi. Shunga qaramay, generativ an'ananing qat'iy formal apparatni ishlab chiqish va universalistik qiyosiy perspektivani shakllantirishdagi hissasi nazariy lingvistika uchun o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Funksional sintaksis shunday yo'nalish sifatida qaraladiki, unda sintaktik tuzilma uning kommunikatsiyadagi roli va ma'no hosil qilish jarayoni orqali izohlanadi. Avtonom grammatik qoidalarga tayanadigan formal modellardan farqli ravishda, funksional nazariyalar sintaksisni muayyan diskurs sharoitida ma'nolarni ifodalash vositasi sifatida talqin qiladi. Judijanto ta'kidlaganidek, zamonaviy funksional paradigma sintaktik tuzilmalarni abstrakt qoidalarining mexanik natijasi sifatida emas, balki kommunikativ maqsad, kontekst va ma'no shakllanish jarayoni bilan belgilanadigan tizimli tanlovlar sifatida ko'radi [7].

Tarixan funksional yondashuv sintaktik hodisalarni faqat formal izohlashning cheklanganligiga javob sifatida shakllangan. Funksional modellar tilni uning real qo'llanishida tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, diskurs tuzilmalari va real nutq variativligigacha bo'lgan keng turdagi ma'lumotlarni qamrab oladi. Pléh va Roszkowski ta'kidlashicha, nazariy paradigmalar o'rtasidagi farq ko'pincha ularning maqsadlari va foydalaniladigan ma'lumot turlari bilan bog'liq: funksional yondashuvlar til tuzilmalarini ularning kommunikativ funksiyalari va empirik kuzatishlar orqali tushuntirishga intiladi [9;383].

Funksional lingvistikaning eng ta'sirli yo'nalishlaridan biri M. Hallidayning tizimli-funksional nazariyasi bo'lib, unda til ijtimoiy-semiotik tizim sifatida talqin qilinadi. Ushbu modelda sintaktik tuzilmalar tilning uch metafunksiyasini – ideatsion, interpersonallik va matniy funksiyalarini – amalga oshirish vositasi sifatida qaraladi; ularning har biri kommunikativ tajribaning turli jihatlarini aks ettiradi. Judijanto qayd etganidek, aynan shu yondashuv sintaksisni tajriba, ijtimoiy munosabatlar va diskursning

axborot tuzilishini tashkil etuvchi vosita sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Funksional nazariyalar kontekst va sintaktik shakllarning variativligiga ham alohida e'tibor qaratadi. Til egalarining intuitiv hukmlariga tayanadigan generativ modellardan farqli ravishda, funksional yondashuvlar korpus ma'lumotlari va real kommunikatsiya tahlilidan keng foydalanadi. Bu an'anada sintaktik variatsiyalar bayonning axborot tuzilishi, pragmatik omillar va diskursni tashkil etish ehtiyojlari orqali izohlanadi, bu esa sintaksisning semantika va pragmatika bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi [7].

Funksional yondashuv sintaktik shakl tanlovi kommunikativ vazifa va axborot taqsimoti bilan belgilanishi mumkinligini ko'rsatadi. Quyidagi misollarni ko'rib chiqamiz:

(2) *The boy opened the door.* (3) *The door was opened by the boy.*

Bir xil propositsional mazmunga ega bo'lishga qaramay, sintaktik tashkil topishdagi farq tema-rema tuzilmasining o'zgarishini aks ettiradi: ikkinchi gapda fokus harakat obyektiga yo'naltiriladi. Shunga o'xshash hodisa so'z tartibi nisbatan erkinroq bo'lgan tillarda, masalan, o'zbek tilida ham kuzatiladi:

(4) *Talaba kitob o'qidi.* (5) *Kitobni talaba o'qidi.*

Komponentlar tartibining o'zgarishi axborot fokusini variatsiyalash imkonini beradi, bu esa sintaktik shaklning diskurs omillariga bog'liqligi haqidagi funksional lingvistika tamoyilini tasdiqlaydi.

Funksional sintaksisning muhim jihatlaridan yana biri uning amaliy salohiyatidir. Judijanto ko'rsatishicha, funksional modellar til o'qitish, tarjimashunoslik va kompyuter lingvistikasida keng qo'llaniladi, chunki sintaktik tuzilmalarni ma'no hosil qilish vositasi sifatida tushunish matn tahlili va tillararo ma'lumot uzatish samaradorligini oshiradi. Shu tariqa, funksional sintaksis nafaqat nazariy model, balki interdisiplinar tadqiqot platformasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Zamonaviy ilmiy munozaralarda generativ va funksional yondashuvlar tobora ko'proq o'zaro to'ldiruvchi sifatida qaralmoqda. Metateoretik sharhlarda formal modellar sintaksisning qat'iy strukturaviy tasvirini ta'minlashi, funksional yondashuvlar esa til shakllarining qo'llanish kontekstidagi motivatsiyasini tushuntirishi ta'kidlanadi [9;384]. Bunday integrativ nuqtai nazar zamonaviy lingvistikaning formal va funksional izohlarni sintez qilishga intilayotgan umumiy tendensiyasini aks ettiradi.

Shunday qilib, funksional sintaksis zamonaviy lingvistik nazariyaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda sintaktik tuzilma kognitiv, kommunikativ va ijtimoiy-diskurs omillar o'zaro ta'siri natijasi sifatida talqin qilinadi. Uning tahliliy salohiyati til shakllarining variativligini hamda ularning ma'no hosil qilish jarayoni bilan bog'liqligini izohlash imkoniyatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy lingvistikada sintaksis tobora ko'proq tilning kognitiv tizimining bir qismi sifatida qaralmoqda, ya'ni u nutq shakli bilan uning konseptual talqini o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlaydi. Adger ta'kidlaganidek, sintaksis insonning til ma'nosini til shakli bilan bog'lash imkonini beruvchi kognitiv qobiliyatdir va aynan shu jihat uni umuman kognitiv fan uchun muhim tadqiqot obyektiga aylantiradi [1;131].

Grammatik tashkil topishning asosiy tamoyili iyerarxik tuzilma bo'lib, unda elementlar konstruktsiyaning "bosh" (head) elementi atrofida birlashadi. Adger ko'rsatishicha, sintaktik birlik turi uning asosiy elementi bilan belgilanadi, ya'ni butun tuzilmaning grammatik xususiyatlarini aynan shu element aniqlaydi: masalan, *the girls from Paris* birikmasida fe'ning moslashuvini unga qo'shni bo'lgan *Paris* emas, balki *girls* so'zi belgilaydi [1;134]. Bu esa sintaksis chiziqli emas, balki struktur tamoyillar asosida tashkil topishini ko'rsatadi.

Zamonaviy sintaktik nazariyada funksional kategoriyalarga – abstrakt grammatik

ma'nolarni ifodalovchi birliklarga alohida e'tibor qaratiladi. Adger ularni leksik kategoriyalardan farqlanuvchi alohida sinf sifatida ajratadi: vaqt (T), aspekt va komplementayzer (C) kabi funksional kategoriyalar maxsus sintaktik xususiyatlarga ega, iyerarxik jihatdan qat'iy tartiblangan va gapning hodisaviy tuzilishini talqin qilishda muhim rol o'ynaydi [1;136]. Masalan, ingliz tilidagi *that* va *if* komplementayzerlari o'rtasidagi farq ergash gapning tasdiq yoki savol shaklida ekanini belgilaydi. Sintaktik bog'lanishlar bo'yicha tadqiqotlarda kelishuv va boshqaruv munosabatlari vaziyat ishtirokchilarining rollarini kodlashning tizimli usullari sifatida talqin qilinadi. Adger uch turdagi bog'lanishlarni ajratadi: shakl bog'lanishlari (moslashuv, kelishik), pozitsion bog'lanishlar (subkategoriyalash, ega pozitsiyasi) va ma'no bog'lanishlari (bog'langan o'zgaruvchilar, qaytish olmoshlari), hamda ularning barchasi gapning yuzaki emas, balki struktur xususiyatlari bilan belgilanadi [1;138–139].

Sintaktik tuzilma va hodisaning konseptual talqini o'rtasidagi bog'liqlik fe'l argumentlarining taqsimlanishidagi farqlar orqali yaqqol ko'rinadi. Quyidagi misollarni ko'rib chiqamiz:

(6) *The girl broke the window.* (7) *The window broke.*

Birinchi gapda sintaktik tuzilma sababiy-agent munosabatni ifodalaydi, ikkinchisida esa hodisa agent ko'rsatilmasdan natijaviy tarzda tasvirlanadi. Adger bu farqni "kichik v" (little v) tushunchasi orqali izohlaydi – bu fe'l ma'nosiga agent qo'shuvchi funksional kategoriyadir: (6) gapda agentiv v mavjud, (7) da esa u yo'q (Adger 2015: 138). Shunga o'xshash farq o'zbek tilida ham kuzatiladi:

(8) *Qiz derazani sindirdi.* (9) *Deraza sindi.*

Bunday misollar sintaktik konfiguratsiya va hodisa talqini o'rtasidagi tizimli bog'liqlikni ko'rsatib, sintaksis bilan konseptual tuzilmaning uzviy integratsiyasini tasdiqlaydi.

Zamonaviy ilmiy munozaralarda sintaksisning avtonomligi masalasi ham faol muhokama qilinmoqda. Adger neyropsixologik va psixolingvistik dalillarga tayanib, grammatika uchun aynan struktur xususiyatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi: til egalari moslashuv qoidalarida qo'shnichilikni emas, balki struktur bog'lanishlarni asos qilib oladi [1;132]. Bu esa sintaktik kompetensiya bevosita kuzatib bo'lmaydigan abstrakt kognitiv mexanizmlarga tayanganini ko'rsatadi.

Shunday qilib, kognitiv-struktur yondashuv sintaktik tashkil topish inson tafakkurining asosiy tamoyillarini – iyerarxiya, bog'liqlik va kategoriyalashni – aks ettirishini ko'rsatadi. U sof formal modellardan farqli ravishda sintaksisni tajribani talqin qilish va tuzilmaga solishni ta'minlaydigan kengroq kognitiv tizimning bir qismi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Sintaksisning tipologik yondashuvi va tillararo variativlik

Zamonaviy lingvistikada tipologik yondashuv sintaktik tuzilmaning universal xususiyatlarini aniqlash hamda tillar o'rtasidagi farqlarni ularning struktur parametrlariga asoslanib izohlashga qaratilgan. Zamonaviy sintaktik tipologiyani asoslari Grinberg tomonidan qo'yilgan bo'lib, u 30 ta til materiali asosida 45 ta lingvistik universalini shakllantirgan, ulardan 28 tasi sintaktik birliklarning nisbiy tartibiga, jumladan, gapda ega, to'ldiruvchi va fe'l joylashuviga taalluqlidir [5;73]. Ushbu kuzatishlar sintaktik tuzilmalarni keng tillararo kontekstda tizimli qiyosiy o'rganishga asos bo'ldi.

Tipologik sintaksisning markaziy masalalaridan biri grammatikaning universal va tilga xos xususiyatlari o'rtasidagi munosabatdir. Kroft ko'rsatishicha, dunyo tillari grammatikalarini taqqoslash variativlikning tizimli qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi va til tuzilmalari mumkin bo'lgan turlariga qo'yiladigan universal cheklavlarni

shakllantirishga yordam beradi [4]. Shu bilan birga, tipologik tadqiqotlar fonologiya, morfologiya, sintaksis va semantikani qamrab olib, tilning tabiatini tushunishda muhim vosita hisoblanadi. Tipologik yoʻnalish tadqiqotchilari tillar oʻrtasidagi farqlar koʻpincha ularning morfologik tuzilishi va soʻz tartibi erkinligi darajasi bilan bogʻliqligini taʼkidlaydi. Boy morfologiyaga ega tillarda sintaktik munosabatlar asosan morfologik vositalar orqali ifodalanadi, analitik tillarda esa komponentlarning chiziqli tartibi muhimroq rol oʻynaydi. Kroft alohida taʼkidlaganidek, tipologik yondashuv alohida tillar materialiga asoslangan nazariy farazlardan mustaqil boʻlgan, tillararo jihatdan amal qiluvchi morfosintaktik tavsiflarni ishlab chiqishni talab qiladi [4;58].

Tipologik yondashuv sintaksis tabiatini tushunishda qiyosiy tadqiqotlarning muhimligini ham taʼkidlaydi. Tillarni taqqoslash gap tuzilishining umumiy tamoyillarini ham, ularning amalga oshirishidagi oʻziga xos usullarni ham aniqlash imkonini beradi. Masalan, soʻz tartibidagi farqlar grammatik munosabatlarni kodlashning turli strategiyalarini aks ettirishi mumkin:

(10) *The student read the book.* (11) *Talaba kitobni oʻqidi.*

Birinchi holatda sintaktik munosabatlar asosan soʻz tartibi (SVO) orqali ifodalanadi, ikkinchisida esa toʻgʻridan-toʻgʻri toʻldiruvchi -ni kelishik koʻrsatkichi bilan, gapdagi oʻrnidan qatʼi nazar, belgilanadi. Greenberg taʼkidlaganidek, bunday farqlar tillar bir xil universal grammatik munosabatlarni turli morfosintaktik vositalar orqali amalga oshirishini koʻrsatadi [5;96].

Zamonaviy ilmiy munozaralarda tipologik sintaksis formal va funksional nazariyalar oʻrtasidagi bogʻlovchi boʻgʻin sifatida qaraladi. Bir tomondan, u grammatik tashkil topishning universal tamoyillariga tayanadi, ikkinchi tomondan esa sintaktik variativlikka taʼsir qiluvchi kommunikativ va kognitiv omillarni hisobga oladi. Kroft alohida taʼkidlaganidek, tipologik va generativ yondashuvlar metodologik farqlarga qaramay, til qobiliyatining biologik va kognitiv asoslariga qiziqish jihatidan umumiylikka ega, biroq ularni turlicha talqin qiladi.

Shunday qilib, tipologik yondashuv sintaktik tuzilma universal tamoyillar va tilga xos xususiyatlarning oʻzaro taʼsiri natijasi ekanini koʻrsatadi. Uning tahliliy ahamiyati sintaktik tizimlar variativligini izohlash va ularning umumiy qonuniyatlarini aniqlash imkoniyatida namoyon boʻladi. Shu bois tipologik sintaksis zamonaviy lingvistik nazariyaning muhim tarkibiy qismi hamda qiyosiy tadqiqotlar uchun zarur nazariy asos hisoblanadi.

Nazariy yondashuvlar sintaktik razmetkalashning metodologik asosi sifatida

Koʻrib chiqilgan zamonaviy lingvistik yoʻnalishlar tilning sintaktik tavsifi va annotatsiya tizimlarini ishlab chiqish uchun metodologik asosni shakllantiradi. Kertész, Moravcsik va Rákosi tomonidan oʻtkazilgan sintaktik nazariyalar qiyosiy tahlili shuni koʻrsatadiki, generativ, funksional, kognitiv va tipologik paradigmalar tubdan turli tahliliy vositalarni taklif etadi va ular korpus lingvistikasi hamda tilni kompyuterda qayta ishlashda bevosita qoʻllaniladi [8].

Generativ sintaksis gapning iyerarxik tuzilmasini formal modellashtirishni taʼminlaydi va bu komponentlar boʻyicha razmetka tizimlarining nazariy asosini tashkil etadi. Funksional nazariyalar matnlarni annotatsiyalashda diskurs va axborot omillarini hisobga olish zarurligini koʻrsatadi, bu esa real kommunikatsiya materialini tahlil qilishda ayniqsa muhimdir. Sintaksisning konseptual jarayonlar bilan bogʻliqligiga asoslangan kognitiv yondashuv esa semantik motivatsiyaga ega razmetka sxemalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Tipologik tadqiqotlar esa annotatsiya tizimlarini turli morfosintaktik xususiyatlarga ega tillarga moslashtirish imkonini beradi, xususan, rivojlangan kelishik

tizimiga ega agglutinatív tillar, masalan, o'zbek tiliga [4;86].

Shunday qilib, zamonaviy lingvistikaning nazariy paradigmalarini nafaqat sintaktik tuzilmani tavsiflaydi, balki korpus lingvistikasi va sintaktik razmetka tizimlarini ishlab chiqish kabi amaliy vazifalar uchun konseptual asos yaratadi. Ularning integratsiyasi til ma'lumotlarini yanada aniq va qiyosiy tavsiflash imkonini beradi, bu esa ayniqsa tillararo tadqiqotlar hamda tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot vazifalariga nisbatan ko'rib chiqilgan nazariy yondashuvlar aniq metodologik yo'nalishga ega bo'ladi. O'zbek va ingliz tillaridagi sodda gaplarni qiyosiy tahlil qilish bir nechta paradigmaga bir vaqtning o'zida murojaat qilishni talab qiladi: generativ yondashuv gapning iyerarxik tashkil topishi hamda argument tuzilmasining universal tamoyillarini tavsiflash imkonini beradi; funksional yondashuv so'z tartibidagi farqlarni bayonning axborot tuzilishi va kommunikativ vazifalar orqali izohlaydi; tipologik yondashuv esa analitik ingliz tili va agglutinatív o'zbek tili o'rtasidagi struktur farqlarni, xususan, grammatik munosabatlarning ifodalanish usullarini – o'zbek tilida kelishik morfologiyasi, ingliz tilida esa nisbatan qat'iy so'z tartibi orqali – tizimlashtiradi. Shu tariqa, mazkur ishning nazariy bazasi integrativ xususiyatga ega bo'lib, tipologik jihatdan farqlanuvchi ikki tilning sintaktik tizimlarini kompleks tavsiflashga yo'naltirilgan.

Xulosa

Zamonaviy lingvistika bir nechta nazariy paradigmalar birgalikda mavjudligi bilan tavsiflanadi, ularning har biri sintaktik tuzilmaning tabiati haqida o'ziga xos izoh beradi. Generativ yondashuv gap tashkil topishining universal tamoyillarini formal tarzda modellashtiradi, funksional nazariyalar sintaksisni diskurs va til qo'llanilishi bilan bog'laydi, kognitiv modellar esa sintaktik tuzilmani konseptualizatsiya tizimining bir qismi sifatida talqin qiladi, tipologik yondashuv esa tillararo variativlik qonuniyatlarini aniqlaydi.

Pléh va Roszkowski ta'kidlaganidek, turli nazariy modellar bir-biri bilan raqobatlashishdan ko'ra, maqsadlar, ma'lumotlar va tahliliy vositalar nuqtai nazaridan o'zaro to'ldiruvchi xususiyatga ega. Bu esa zamonaviy sintaktik tadqiqotlarning multiparadigmatal xususiyatini va formal, funksional hamda kognitiv izohlarni integratsiyalashga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Ko'rib chiqilgan yondashuvlar nafaqat tilni nazariy tavsiflash uchun, balki korpus lingvistikasi hamda sintaktik razmetka tizimlarini ishlab chiqish kabi amaliy vazifalar uchun ham konseptual asos yaratadi. Bu esa turli tipologik xususiyatlarga ega, jumladan agglutinatív tillarni o'rganishda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adger, D. Syntax. WIREs Cognitive Science, 6, 131–147.2015.
2. Chomsky, N. Aspects of the theory of syntax. MIT Press.1965.
3. Chomsky, N. The minimalist program. MIT Press.1995.
4. Croft, W. Typology and universals (2nd ed.). Cambridge University Press.2002.
5. Greenberg, J. H. Some universals of grammar with particular reference to the order of meaningful elements. In J. H. Greenberg (Ed.), Universals of language (pp. 73–113). MIT Press.1963.
6. Halliday, M. A. K., & Matthiessen, C. M. I. M. Halliday's introduction to functional grammar (4th ed.). Routledge.2014.
7. Judijanto, L. Functional syntax: A contemporary approach to sentence structure analysis. Journal of Educational and Language Research, 4(3).2025.
8. Kertész, A., Moravcsik, E., & Rákosi, C. (Eds.). Current approaches to syntax: A comparative handbook. Walter De Gruyter.2019.